



ISSN: 2181-9416

ЮРИСТ АХБОРОТНОМАСИ

ВЕСТНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

ҲУҚУҚИЙ, ИЖТИМОИЙ, ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

ISSN 2181-9416
Doi Journal 10.26739/2181-9416

ЮРИСТ АХБОРОТНОМАСИ

1 СОН, 4 ЖИЛД

ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 1, ВЫПУСК 4

LAWYER HERALD

VOLUME 1, ISSUE 4



TOSHKENT-2025

Мундарижа

КОНСТИТУЦИЯВИЙ ҲУҚУҚ. МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ. МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ

1. ТУРДИЕВ Бобир Собирович

ҚУЛАЙ АТРОФ-МУҲИТГА БЎЛГАН ҲУҚУҚ: ЭКОЛОГИЯГА ОИД ҚАРОРЛАР ҚАБУЛ
ҚИЛИШДА ЖАМОАТЧИЛИК ИШТИРОКИ МАСАЛАЛАРИ 8

2. РАХМОНОВ Зафаржон Зайниддинович

ДАВЛАТ ФУҚАРОЛИК ХИЗМАТЧИЛАРИНИ ИЖТИМОИЙ ҲИМОЯ ҚИЛИШ
МЕХАНИЗМЛАРИ 21

ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ

3. КАМАЛОВ Мансурхон Мухтарович

КОРПОРАТИВНЫЕ ПРАВООТНОШЕНИЯ: ОСОБЕННОСТИ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ
И ОТВЕТСТВЕННОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ 26

4. САИДОВ Мақсудбек Норбоевич

МЕРОСХЎР (ҲУҚУҚИЙ ВОРИС)НИНГ МАСЪУЛИЯТИ ЧЕКЛАНГАН ЖАМИЯТДАГИ
УЛУШГА НИСБАТАН ҲУҚУҚИ: МАВЖУД МУАММОЛАР ВА ЕЧИМЛАР 35

СУД ҲОКИМИЯТИ. ПРОКУРОР НАЗОРАТИ. ҲУҚУҚНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ

5. КОМИЛОВ Авазбек Бокижонович

ПРОКУРОР ҲУҚУҚИЙ ВОСИТАЛАРИНИНГ МИЛЛИЙ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ ТАҲЛИЛИ ... 42

ЖИНОЯТ ҲУҚУҚИ, ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ. КРИМИНОЛОГИЯ. ЖИНОЯТ-ИЖРОИЯ ҲУҚУҚИ

6. TO'RAYEVA Ziyoda Yakubovna

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VOYAGA YETMAGANLARNI JINOIY JAVOBGARLIK VA
JAZODAN OZOD QILISHGA OID QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH 50

7. АТАКУЛОВ Бекзод Абдухалил угли

КЛАССИФИКАЦИЯ И МЕТОДИКА ВЫЯВЛЕНИЯ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ 58

8. БОБОМУРОДОВ Фарход Боймуротович

ТЕЗКОР-ҚИДИРУВ ФАОЛИЯТИДА ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ, ЭРКИНЛИКЛАРИ ВА ҚОНУНИЙ
МАНФААТЛАРИНИ ТАЪМИНЛАШГА ОИД ҲУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАР ТАҲЛИЛИ 65

ХАЛҚАРО ҲУҚУҚ ВА ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ

9. ЮЛДАШЕВА Говхержан

МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ В СФЕРЕ БОРЬБЫ С ПЫТКАМИ И КОНСТИТУЦИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН 76

10. RAKHMANOV Shukhrat	
LEGAL STATUS AND DIPLOMATIC IMMUNITIES OF THE EUROPEAN UNION DELEGATION IN UZBEKISTAN: CURRENT ASPECTS	81
11. URINBOYEV Rustamjon	
MIGRATION, GENDER AND LEGAL CULTURE: CENTRAL ASIAN LABOUR MIGRANTS IN RUSSIA.....	87
12. РАХИМОВА Муаттара Абдусаттаровна	
ГЕНЕЗИС ПОНЯТИЙНОГО АППАРАТА «МЕЖДУНАРОДНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ».....	97
13. БАРАТОВ Миродилжон Хомуджонович, ХАКИМОВ Равшан Тулкунович, АКРАМХОДЖАЕВ Бори Тохтаходжаевич	
НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ВСТУПЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА ВО ВСЕМИРНУЮ ТОРГОВУЮ ОРГАНИЗАЦИЮ	110
14. РАСУЛОВ Журабек Абдусамиевич	
ХАЛҚАРО МИГРАЦИЯНИ БОШҚАРИШНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ ТУЗИЛМАСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ БОРАСИДА ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАР.....	120

ЮРИСТ АХБОРОТНОМАСИ

ВЕСТНИК ЮРИСТА

LAWYER HERALD

ЖИНОЯТ ҲУҚУҚИ, ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ. КРИМИНОЛОГИЯ. ЖИНОЯТ-ИЖРОИЯ ҲУҚУҚИ

ТО‘РАБАЕВА Ziyoda Yakubovna

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası katta o‘qituvchisi

E-mail: saarlandesziyoda@mail.ru

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VOYAGA YETMAGANLARNI JINOIY JAVOBGARLIK VA JAZODAN OZOD QILISHGA OID QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH

For citation (иктибос келтириш учун, для цитирования): ТО‘РАБАЕВА З.У. O‘zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilishga oid qonunchilikni takomillashtirish // Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. № 1 (2025) В. 50-57.



1 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-1-6>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada voyaga yetmagan shaxslarni majburlov choralarini qo‘llagan holda jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish, majburlov choralarining turlari, ularni qo‘llash tartibi, Qozog‘iston, Tojikiston va Armaniston Respublikasi Jinoyat kodekslarida voyaga yetmagan shaxslarga qo‘llanidigan majburlov choralarining turlari va qo‘llovchi organlarning vakolatlari qiyosiy tahlil qilingan. “Jinoiy javobgarlik”, “jinoiy jazo” tushunchari va ularning mazmun-mohiyati ochib berilgan. Bundan tashqari Bolalar masalalari bo‘yicha komissiya faoliyati va xorijiy mamlakatlarda mazkur komissiyaning o‘ziga xos jihatlari, voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan jinoiy jazolar tizimini liberallashtirish, javobgarlik va jazodan ozod qilishni takomillashtirish va rivojlantirish uchun xorijiy mamlakatlar qonunchiligini tahlil qilish va qonunchiligimizga tadbiq qilish masalalari mazkur sohada tadqiqotlar olib borgan olimlarning fikr-mulohazalari asosida O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligini takomillashtirish bo‘yicha taklif va xulosalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: jinoiy javobgarlik, jinoiy jazo, majburlov choralarini qo‘llagan holda javobgarlikdan va jazodan ozod qilish

ТУРАБАЕВА Зиёда Якубовна

Старший преподаватель кафедры уголовного права, криминологии и противодействия коррупции

Ташкентского государственного юридического университета

E-mail: saarlandesziyoda@mail.ru

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ПО ОСВОБОЖДЕНИЮ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ ОТ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ И НАКАЗАНИЯ

АННОТАЦИЯ

В данной статье проведен сравнительный анализ освобождения несовершеннолетних лиц от ответственности и наказания с применением принудительных мер, рассмотрены виды принудительных мер, порядок их применения, а также виды принудительных мер, применяемых к несовершеннолетним в Уголовных кодексах Казахстана, Таджикистана и Армении, и полномочия органов, их применяющих. Раскрыты понятия “уголовная ответственность” и “уголовное наказание”, а также их сущность и содержание. Кроме того, на основе анализа деятельности Комиссии по делам несовершеннолетних и ее особенностей в зарубежных странах, а также мнений ученых, проводивших исследования в данной области, были разработаны предложения и выводы по совершенствованию уголовного законодательства Республики Узбекистан. Эти предложения касаются либерализации системы уголовных наказаний, применяемых к несовершеннолетним, совершенствования и развития механизмов освобождения от ответственности и наказания, а также анализа и применения законодательства зарубежных стран в нашем законодательстве.

Ключевые слова: уголовная ответственность, уголовное наказание, освобождение от ответственности и наказания с применением мер принуждения.

TURABAEVA Ziyoda

Lecturer at Tashkent State University of Law

E-mail: saarlandesziyoda@mail.ru

IMPROVING THE LEGISLATION ON THE EXEMPTION OF MINORS FROM CRIMINAL RESPONSIBILITY AND PENALTIES IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ANNOTATION

This article presents a comparative analysis of the exemption of minors from criminal liability and punishment through the application of coercive measures. It examines the types of coercive measures, the procedure for their implementation, as well as the specific coercive measures applied to minors in the Criminal Codes of Kazakhstan, Tajikistan, and Armenia. The article also explores the powers of the authorities responsible for applying these measures. Furthermore, it delves into the concepts of “criminal liability” and “criminal punishment”, elucidating their essence and content. In addition, based on the analysis of the activities of the Commission on Juvenile Affairs and its features in foreign countries, as well as the opinions of scientists who conducted research in this area, proposals and conclusions were developed to improve the criminal legislation of the Republic of Uzbekistan. These proposals relate to the liberalization of the system of criminal punishments applied to minors, the improvement and development of mechanisms for exemption from liability and punishment, as well as the analysis and application of foreign legislation in our legislation.

Key words: exemption from liability and punishment with the application of criminal liability, criminal punishment, coercive measures

Aytish kerakki, aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish, sud qilishdan maqsad, ularni tarbiyalash, to'g'ri yo'lga solish, jinoyatchilikning oldini olish ekan, bunga insonni faqat jazolash bilan, faqat repressiv usullar bilan tarbiyalash bilan erishib bo'lmasligi hammamizga ma'lum. Insonni, xususan voyaga yetmagan shaxslarni tarbiyalash uchun butun jamiyat harakat qilishi, jinoyat sodir etilishiga olib keluvchi sabab va omillarni oldi olinishi, bartaraf qilinishi lozim.

JKning XVI – bobi “Javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish” deb nomlangan va ushbu bob 87-90 moddalarni o‘z ichiga oladi. Majburlov choralari qo‘llagan holda javobgarlikdan jazodan ozod qilish masalalari JK 87-modda 1-qismida belgilangan.

“Jinoiy javobgarlik” tushunchasi “Jinoiy jazo” tushunchasidan kengroq hisoblanadi. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun sudda jiddiyroq asoslar mavjud bo‘lishi, sababi javobgarlikdan ozod bo‘lgan shaxs nafaqat unga nisbatan tayinlanadigan jazodan, balki uning huquqiy oqibati bo‘lmish, sudlanganlikdan ham “ozod” bo‘ladi. Jinoiy jazo esa jinoiy javobgarlikning bir ifodasidir.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish – bu jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan tayinlanadigan jinoiy jazo qo‘llanmasdan, javobgarlikdan ozod bo‘lishidir. Bunda voyaga yetmaganlarga nisbatan majburlov choralari qo‘llagan holda jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni tushunishimiz mumkin. Jinoiy javobgarlik o‘z mohiyatiga ko‘ra, davlatning majburlov choralari bilan tenglashtiriladi. Misol uchun A.V.Kladkova [1.48], Yu.M.Tkachevskiy [2.132] va boshqa olimlarning fikriga ko‘ra, jinoiy javobgarlik – jinoyat qilgan shaxslarga sudning ayblash haqidagi hukmiga muvofiq davlatning majburlov choralari qo‘llash demakdir [3.24].

Jinoiy javobgarlikdan ozod etish, o‘zining yuridik mazmuniga ko‘ra, aybdorning sodir qilgan jinoyatining barcha huquqiy oqibatlaridan, jazodan va sudlanganlik cheklovlaridan ozod qilinishi, xullas, davlat nomidan sudning ayblov hukmida fuqaroni jinoyatchi deb e‘lon qilishdan voz kechishni bildiradi [4.49].

Voyaga yetmaganlarni javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilishning turlari sifatida majburlov choralari qo‘llagan holda javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish (JK 87-modda), jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish (JK 89-modda) va jazoni yengilrog‘i yuilan almashtirish (JK 90-modda)lar keltirilgan.

Jinoyat huquqi nazariyasida shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning asoslari, shartlari va tartibi belgilash bilan bog‘liq turli fikrlar mavjud. A.V.Naumov bu masalaga alohida e‘tibor qaratib, jinoyat sodir qilgan shaxs faqat ijtimoiy xavfli bo‘lmagan taqdirdagina uni jinoiy javobgarlikdan ozod qilishga yo‘l qo‘yilishi, shaxsning bunday tavsiflanishi ozod etishning ajralmas sharti sifatida zarur ekanligini ta’kidlaydi. [5.137].

Sh.Berdiyev fikricha, jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning normativ asoslari mazmuniga ko‘ra, shartli va shartsiz bo‘lishi mumkin [6.79]. Yuridik adabiyotlarda jinoiy javobgarlikdan ozod etishda sinov muddati tushunchasi ham mavjud bo‘lib, unga ko‘ra, aybdor ma’lum muddatda xulq-atvor qoidalariga rioya qilishi lozim, agar sud belgilab bergan bu kabi qoidalar aybdor tomonidan buzilsa, sud o‘z qarorini bekor qilib unga nisbatan jinoiy jazo tayinlash masalasi qo‘yiladi.

Bir nechta olimlarning ta’kidlashlaricha, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish instituti tugatilishi lozimligi bildirilgan. Mazkur institut birinchidan, jinoyatchilikka qarshi kurash amaliyoti borasidagi xalqaro norma va prinsiplar, andozalarga javob beradi, ikkinchidan, jinoyat huquqini rivojlantirishning insonparvarlik tamoyiliga muvofiq keladi, uchinchidan, amaliyotda keng qo‘llanilib, o‘zining samaradorligini isbotlay oldi.

Bu masalaga M.X.Rustambayev e‘tibor qaratib, jinoiy javobgarlikdan ozod etish – bu jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiruvchi organlar timsolida davlat jinoyat sodir qilgan shaxsni JKda ko‘rsatilgan barcha holatlar yuzasidan o‘zining ilgarigi ijtimoiy xavflilik darajasini yo‘qotganligi oqibatida shaxsni mahkum qilishdan voz kechishi [7.156], deb ta’kidlaydi.

Majburlov choralari qo‘llash orqali javobgarlikdan ozod qilish faqat voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan qo‘llanilsagina maqsadga muvofiq bo‘ladi, chunki ushbu choralar tarbiyaviy xususiyatga ega. Shuningdek, majburlov choralari qo‘llashdan maqsad voyaga yetmagan aybdor shaxslarni tarbiyalash, yangi jinoyatlar sodir etishini oldini olishdan iboratdir. Bundan tashqari, mazkur choralarni voyaga yetgan shaxslarga nisbatan qo‘llash bundan ko‘zlangan maqsadga erishilishiga olib kelmaydi. Bundan shu xulosa kelib chiqadiki, majburlov choralari qo‘llash uchun shaxs voyaga yetmagan bo‘lishi kerak.

JKning 87-moddasi birinchi qismida ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan voyaga yetmagan shaxs, agar sodir etgan qilmishining xususiyatlari, aybdorning shaxsi va ishning boshqa holatlarini e‘tiborga olib, uni jazo qo‘llamasdan turib ham tuzatish mumkin degan xulosaga kelinsa, javobgarlikdan ozod qilinib, ish voyaga yetmaganlar ishlari

bilan shug'ullanuvchi komissiyada ko'rishga topshirilishi mumkinligi belgilangan. Bu majburlov choralari voyaga yetmaganni jinoiy jazo qo'llamasdan ham tarbiyalash maqsadida qo'llanadi [8.23].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 17-yanvardagi "Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiya faoliyatini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 13-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiya Nizomi"ning 23-bandida voyaga yetmagan shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish to'g'risidagi materiallar voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi tuman (shahar) komissiyasiga shaxsning yashash joyi bo'yicha jo'natilishi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, Bolalar masalalari bo'yicha komissiya o'n sakkiz yoshga to'lmagan huquqbuzarga nisbatan quyidagi choralarni ko'rish mumkin:

a) voyaga yetmaganga jabrlanuvchidan uzr so'rash majburiyatini yuklash to'g'risida tuman (shahar) sudiga taqdimnoma kiritish;

b) ogohlantirib qo'yishi;

v) o'n besh yoshga to'lgan voyaga yetmagan zimmasiga, agar u mustaqil ish haqiga ega bo'lsa va zarar miqdori belgilangan eng kam oylik ish haqidan ortiq bo'lmasa yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplash yoki uni bartaraf etish majburiyatini yuklash yoki belgilangan eng kam oylik ish haqi miqdoridan ortiq bo'lmagan moddiy zararni o'z mehnati bilan qoplash majburiyatini yuklashi to'g'risida tuman (shahar) sudiga taqdimnoma kiritishi;

g) o'n olti yoshga to'lgan va mustaqil ish haqiga ega bo'lgan voyaga yetmaganga O'zbekiston Respublikasi MJtKda nazarda tutilgan hollarda va miqdorlarda jarima solishi;

d) voyaga yetmaganni o'z ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar yoxud jamoat tarbiyachilari nazoratiga, shuningdek ularning roziligi bilan mehnat jamoasi yoki nodavlat-notijorat tashkilot kuzatuviga topshirish;

e) voyaga yetmaganni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risida sudga iltimosnoma yuborish;

j) har bir aniq holat bo'yicha qabul qilingan ta'sir ko'rsatish choralari to'g'risida komissiyalar voyaga yetmaganning yashash, o'qish yoki ish joyi bo'yicha huquqbuzarliklarning profilaktikasi bo'linmalari tomonidan voyaga yetmaganlar o'rtasida yakka tartibda profilaktika o'tkazilishini ta'minlash uchun ichki ishlar tegishli hududiy organlarini xabardor qilishga majbur [9].

Majburlov choralarini qo'llashdan maqsad ularni jinoiy jazo choralarining o'rniga tayinlashdir. Ushbu choralar voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llanilishi bilan birgalikda, ularda ishontirish hissini uyg'otishi bilan ahamiyatlidir. Ya'ni, bunda shaxs tarbiyalanadi, qayta jinoyat sodir etmasligiga, agar yangi jinoyat sodir etadigan bo'lsa, qonunchiligimizda belgilangan jinoiy javobgarlik va jazoga tortilishiga ishontiriladi.

Yoshlar tarbiyasiga Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev alohida to'xtalib o'tib: "...bolalarimizni birovlarining qo'lga berib qo'ymasdan o'zimiz tarbiya qilishimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko'proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak, bu borada uyushmagan yoshlar bilan ishlashga alohida e'tibor qaratishimiz zarur" [10.2], deb ta'kidlaganlar.

Voyaga yetmaganlarga JK 87-moddaning birinchi qismini qo'llashda quyidagi xususiyatlarga e'tibor berilishi kerak, ya'ni ushbu modda qo'llanish vaqtida shaxs o'n sakkiz yoshga to'lmagan bo'lishi hamda sodir etilgan qilmish ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va jinoyat birinchi marta sodir etilgan bo'lishi kerak. Uni qo'llashda sud voyaga yetmaganning jinoyat sodir etish vaqtidagi va jinoyat sodir etilganidan keyingi xulqini hisobga oladi va uni jazo qo'llamasdan ham tuzatish mumkin, degan qat'iy xulosaga kelingan bo'lishi kerak.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, Qozog'iston, Tojikiston va Armaniston Respublikasi Jinoyat kodeksida voyaga yetmagan shaxslarga qo'llanidigan majburlov choralari aniq belgilab qo'yilgan. Aytish kerakki, mazkur davlatlarning jinoyat qonunchiligida ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarni sodir etgan voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan majburiy choralar qo'llanilib, javobgarlikdan ozod qilinishi belgilangan. Ya'ni, bizning jinoyat qonunchiligimizga muvofiq, majburlov choralari faqat ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlarni

birinchi marta sodir etgan voyaga yetmagan shaxsga nisbatan, sodir etilgan qilmishining xususiyatlari, aybdorning shaxsi va boshqa holatlarni inobatga olib, voyaga yetmagan shaxsni jazo qo'llamasdan ham tarbiyalash mumkin, degan xulosaga kelingan taqlirda qo'llaniladi.

Masalan, Armanistonning jinoyat qonunchiligida majburlov choralarini tayinlashning aniq muddatlari belgilab qo'yilgan, voyaga yetmaganlarga qo'llaniladigan majburiy choralar: ogohlantirish, olti oydan oshmagan muddatga ota-ona yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar yoki o'zini o'zi boshqarish organlari nazorati ostiga berish, yetkazilgan zararni sud tomonidan belgilangan muddatda qoplashdan iborat bo'lib, ushbu chora olti oygacha tayinlanadi.

Voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan jinoiy jazolar tizimini liberallashtirish, javobgarlik va jazodan ozod qilishni takomillashtirish va rivojlantirish uchun xorijiy mamlakatlar qonunchiligini tahlil qilish va bizning qonunchiligimizga tadbiq qilish maqsadga muvofiqdir. Fikrimizcha, majburlov choralarini qo'llagan holda javobgarlikdan ozod qilish asoslarini rivojlantirish va majburiy choralar qo'llanilish muddatini jinoyat qonunchiligida aniq belgilab qo'yish maqsadga mavofiqdir.

Jinoyat sodir etgan shaxslarga, xususan, voyaga yetmagan shaxslarga jinoiy jazolarning repressiv choralarini qo'llash har qanday holatda ham to'g'ri bo'lavermaydi, o'smirlarning psixofiziologiyasidan, katta yoshdagi jinoyatchilar ta'siri ostida jinoyat sodir etish holatlari ko'p uchrashini inobatga olib, ularga majburlov choralarini qo'llagan holda jazodan ozod qilish institutini rivojlantirish kerak.

V.V. Bogdanov, F.V. Gabdraxmanov, O.V. Kornevalar voyaga yetmaganlar sodir etgan jinoyatlarning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilib, ularga nisbatan tayinlanadigan jinoiy jazo turlarini xalqaro miqyosda o'rganib, jinoiy odil sudlovni insoniylashtirish to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirishni hisobga olib, bunday jazolarni kamaytirish kerakligini [11.28] ta'kidlab o'tgan.

Jazodan ozod qilish mahkumning yoki u sodir qilgan qilmishning xususiyatidan kelib chiqib, u ijtimoiy xavfliligi kamligi uchun, aybdorni axloqan tuzatish yoki jimiyatni undan muhofaza qilish uchun unga jazo tayinlamasa ham bo'ladi degan qarorga kelinsa, jazoni umuman yoxud uning bir qismini ijro etishdan voz kechishda namoyon bo'ladi. Ta'kidlash kerakki, jazodan ozod qilish faqat sud tomonidan belgilangan tartibda va hollarda amalga oshiriladi.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish jinoyat huquqiy munosabatlarning tugallanishini anglatadi, jazodan ozod qilish esa jinoyat sodir etgan shaxsga jinoiy jazoni amalda qo'llamaslikni ifodalaydi. Jazodan yoki javobgarlikdan ozod qilish institutida jinoyat qonunchiligimizdagi insonparvarlik prinsipi, jinoyat huquqiy repressiyani tejash va undan maqsadli foydalanish g'oyalari o'z aksini topgan [12.47]. Majburlov choralarini qo'llagan holda voyaga yetmaganlarni javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish shular sarasiga kiradi.

Muayyan vaziyatlarda mahkumni axloqan tuzatish va jinoyatlarni oldini olish maqsadlariga jazoni amalda o'zgartirmasdan ham erishish mumkin. Hukmni ijrosini davom ettirish esa huquqbuzarni tezda jamiyatga qaytarish vazifasi bilan (ijtimoiylashtiruv vazifasi bilan) ziddiyatga kirishishi mumkin. Jinoiy jazodan ozod qilish institutining mavjudligi, ma'lum darajada, mahkumlarni axloqan tuzalishini rag'batlantiradi. Voyaga yetmaganlarni jazodan ozod qilish alohida e'tibor talab qiladigan ayrim xususiyatlarga ega. O'zR JK 87-modda 2-qismida uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlash nazarda tutilgan uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan yoki ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatni takroran sodir etgan voyaga yetmagan shaxsni, agar sodir etilgan qilmishning xususiyatlari, aybdorning shaxsi va ishning boshqa holatlarini e'tiborga olib, uni jazo qo'llamasdan ham tuzatish mumkin degan xulosaga kelinsa, sud jazodan ozod qilish va unga nisbatan majburlov choralarini qo'llash masalasini ko'rib chiqish shartligi belgilangan edi. O'zbekiston Respublikasining 2005-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-10-son qonuniga muvofiq JK 87-moddasi 2-qismiga o'zgartirish kiritilgan. Unga muvofiq JK 87-moddasi 2-qismidagi "uch" degan so'zi "besh" degan so'z bilan almashtirilgan. Ushbu o'zgartirishning mohiyati JK 87-moddasida ko'rsatilgan uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarni JK 15-moddasiga muvofiqlashtirishdir.

JK 87-moddasi 2-qismida voyaga yetmagan shaxs uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etsa va buning uchun qonunda besh yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlash nazarda tutilgan bo'lsa, shuningdek ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatni takroran sodir etgan voyaga yetmagan shaxsni sodir qilgan qilmishining xususiyatlari, aybdorning shaxsi va ishning boshqa holatlarini xisobga olib, sud majburlov choralari qo'llagan holda jazodan ozod qilish masalasini ko'rib chiqishi shart.

Yuqoridagi moddaning sharhlaganda quyidagi ma'no kelib chiqadi, ya'ni ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatni sodir etgan voyaga yetmagan shaxs ilgari ham bunday jinoyatni sodir etgan taqdirda jazodan ozod qilinishi mumkin, bunda qonun chiqaruvchi bu jinoyat voyaga yetmagan shaxs tomonidan faqat takroran sodir etilgan bo'lishini talab qiladi. Agar voyaga yetmagan shaxs sodir etgan jinoyati jinoyatlar majmuini tashkil qilsa, jazodan ozod qilishning bu turini qo'llab bo'lmaydi. Uncha og'ir bo'lmagan jinoyat uchun besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlash qoidasidan kelib chiqib shuni aytish kerakki, bu jinoyat faqat qasddan sodir etilgan bo'lsagina voyaga yetmagan jinoyatchini majburlov choralari qo'llagan holda jazodan ozod qilish mumkin, biroq uncha og'ir bo'lmagan jinoyat ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan bo'lsa, jazodan ozod qilishning bu turini qo'llab bo'lmaydi. Ta'kidlash kerakki, kiritilgan o'zgartirishda ayb shakli haqida to'liq ma'lumot berilmagan. Vaholanki, uncha og'ir bo'lmagan jinoyat uchun tayinlanadigan ozodlikdan mahrum qilish jazosining muddati har xil bo'lsa-da, lekin ularning ijtimoiy xavflilik darajasi va xususiyati bir xildir.

U.Sh.Xoliqulov fikricha, majburlov choralari qo'llashning formal asoslari quyidagilar:

1) voyaga yetmagan shaxs tomonidan ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatni takroran sodir etish yoki besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlash nazarda tutilgan uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etishi;

2) mazkur jinoyat uchun hukm qilinishi [12.47].

Bundan tashqari, ushbu moddada voyaga yetmagan shaxsni jazo qo'llamasdan ham tuzatish mumkin degan xulosaga kelinsagina jazodan ozod qilish talabi qo'yilgan. Majburlov choralari qo'llagan holda jazodan ozod qilish javobgarlikdan ozod qilishdan farqli ravishda, voyaga yetmagan shaxsga nisbatan hukm chiqariladi va jazodan ozod qilinadi.

JKning 88-moddasiga muvofiq, voyaga yetmagan shaxsni javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilishda bir xildagi majburlov choralari qo'llanadi. Majburlov choralarining tizimi jazo tizimidan jiddiy farq qiladi. Majburlov choralari qo'llashda ko'proq tarbiyaviy vositalarga, yana jinoyat sodir qilishi mumkin emasligi uning ogn-u shuuriga yetkazilishiga e'tibor beriladi hamda bu choralarning ijro etilishi majburiydir. Shuningdek, majburlov choralari voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan qo'llashda ularning bunga ixtiyori yoki roziligi so'ralsa-da, undan qat'iy nazar amalga oshiriladi. Bu choralar davlatning majburlov vositalari bilan ta'minlanadi, biroq qonunchiligimizda majburlov mexanizmi aniq belgilanmagan.

JKning 88-moddasida uzr so'rash majburiyati, yetkazilgan zararni sud belgilaydigan tartibda to'lash yoki bartaraf qilish, maxsus o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish kabi majburlov choralari ko'rsatilgan.

Aytish kerakki, JKda voyaga yetmagan shaxslarga qo'llaniladigan majburlov choralarining muddatlari belgilab qo'yilmagan. Vazirlar Maxkamasining yuqorida keltirilgan qarorida "... voyaga yetmagan shaxslar maxsus o'quv-tarbiya muassasalarida to'xtatib tuzalgunlariga qadar saqlanadilar", deb ko'rsatilgan. Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda va qonunni bir xilda qo'llanishini ta'minlash maqsadida bizning qonunchiligimizda ham bu choraning maksimal muddatini mustahkamlab qo'yish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Majburlov choralarining boshqalariga nisbatan eng yengili uzr so'rash hisoblanadi. Voyaga yetmagan shaxs jabrlanuvchidan og'zaki yoki yozma ravishda, ko'pchilikning oldida yoki yakka tartibda uzr so'raydi. Uzr so'rash joyi, vaqti va tartibini sud belgilaydi. Uzr so'rash majburiyatini yuklash tariqasida majburlov chorasi ijro etilganligi to'g'risida tegishli hujjat rasmiylashtiriladi [13]. Umumiy qoidaga ko'ra, ushbu majburlov chorasi sodir etilgan qilmish ma'naviy zarar yetkazish, jamoat tartibini buzishga qaratilgan bo'lsagina qo'llanadi, biroq qilmish natijasida jabrlanuvchining hayoti yoki sog'lig'iga, o'zgalarning mulkiga zarar yetkaziladigan bo'lsa, bunday chora qo'llanmaydi.

Shuningdek, sud tomonidan yetkazilgan zararni bartaraf qilish majburiyati o'n olti yoshga to'lgan shaxs zimmasiga o'z mablag'i hisobidan yoki mehnati bilan to'lash orqali bartaraf qilish majburiyatini yuklashi mumkin, lekin ushbu majburlov chorasini keltirilgan zarar belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan oshib ketmagan taqdirdagina qo'llanishi qonunchiligimizda belgilab qo'yilgan. Sud ushbu jazo turini tayinlagan vaqtida voyaga yetmagan shaxsning mehnat qobiliyatini, turmush sharoitini, mulkiy ahvolini va mustaqil daromadini inobatga olishi kerak.

Voyaga yetmagan shaxsni maxsus o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish majburlov chorasining ancha og'ir turi bo'lib, ushbu tarbiya muassasasi o'smirlar xulq-atvorini tuzatish va jamiyatga moslashishni qamrab olgan ruhiy, tibbiy va ijtimoiy reabilitatsiyasini ta'minlashga hamda ta'lim olishi uchun sharoit yaratib berishga mo'ljallangan [14.62]

Ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari joylashgan joydagi tuman (shahar) komissiyasi o'quvchiga ko'rsatib o'tilgan muassasalarda joriy o'quv yilida o'rta umumta'lim maktabi yoki kasb-hunar kollejining tegishli sinfini tugallaguncha uch yil muddat o'tgandan keyin ham qolishga ruxsat berishi mumkin.

Ta'kidlash lozimki, JK 88-moddasining 2-qismida quyidagi qoida belgilangan, ya'ni voyaga yetmagan shaxslarni maxsus o'quv-tarbiya muassasalarida bo'lish muddati va shartlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan belgilanadi. Voyaga yetmaganlarning maxsus o'quv-tarbiya muassasalarida bo'lishi tartibi va sharoiti, o'quv jarayoni va tarbiyaviy ta'sirga oid ishni tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan belgilanishi qayd etilgan.

Yuqoridagi muammoli holatga yechim berish maqsadida tahlil qilingan qonunchilik normalarini bir xil tarzda qo'llanilishini ta'minlash uchun ushbu majburlov chorasini qo'llanilishida minimal va maksimal muddatni belgilab qo'yish maqsadga muvofiqdir.

Иктибослар/Сноски/References:

1. Уголовное право Российской Федерации. Общая часть/Под ред, Б.В.Здравомыслова. – М.: 2007. С.65. URL: https://rusneb.ru/catalog/000199_000009_004483198/
2. Ю.М.Ткачевский, Крылова Н.Е. Понятие и виды освобождения от уголовной ответственности// Курс уголовного права: Вып. 5 том. Под ред. Н.Ф. Кузнецовой и И.М. Тяжковой. Т.2. Общая часть: Учение о наказании. – М.: 2002. С.163. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/uslovnnye-i-bezuslovnnye-vidy-osvobozhdeniya-ot-ugolovnoy-otvetstvennosti>
3. Курс уголовного право. Общая часть. Т.I. Учения о преступлении. –М.: 2008. С.191. https://miit.ru/content/%D0%9E%D0%B1%D0%BB%D0%BE%D0%B6%D0%BA%D0%B0.pdf?id_vf=107100
4. Уголовное право РФ (Общая часть).-М.: Юрист, 2008. С. 430. URL: <https://urait.ru/book/ugolovnoe-pravo-obschaya-chast-558681>
5. Наумов А.В. Российское уголовное право. Общая часть. Курс лекций. –М.: Бек, 2006, С.440-441. URL: <http://lawlibrary.ru/izdanie6499.html>
6. Бердиев Ш. Жиноят қонунларининг либераллаштирилиши жараёнида жиноий жавобгарликдан озод қилишни такомиллаштириш муаммолари. Диссертация. Тошкент. 2011 й. Б 134. URL: <https://api.ziyouet.uz/uploads/books/7007/637214c89f322.pdf>
7. Рустамбаев М.Х. Курс уголовного права Республики Узбекистан в пяти томах. Том II. Ташкент ТГЮИ, 2008. С.187. URL: <https://library-tsul.uz/ru/kurs-ugolovnogo-prava-respubliki-uzb-5/>
8. Усмоналиев М. Жиноят ҳуқуқи. Умумий қисм. Олий ўқув юртлари учун дарслик.—Т., «Янги аср авлоди», 2010 й. Б-146. URL: [https://ilmiy.bmti.uz/blib/files/86/Jinoyat%20huquqi%20\(M.Usmonaliyev\).pdf](https://ilmiy.bmti.uz/blib/files/86/Jinoyat%20huquqi%20(M.Usmonaliyev).pdf)
9. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2011 йил 17 январдаги 13-сонли “Вояга етмаганлар ишлари бўйича комиссия фаолиятини такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори билан тасдиқланган “Вояга етмаганлар ишлари бўйича комиссия Низоми”, 23-банди. URL: <https://lex.uz/docs/1732897>
10. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган

маросимдаги “Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш — юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови” номли маърузаси. URL: <https://president.uz/uz/lists/view/108>

11. Любавина М.А. Особенности уголовной ответственности и наказания несовершеннолетних: учебное пособие / М.А.Любавина. – Санкт-Петербургский юридический институт (филиал) Академии Генеральной прокуратуры Российской Федерации, 2015. –104 с. URL: https://procuror.spb.ru/izdanija/2015_01_07.pdf

12. Холикулов У.Ш. Ўзбекистон Республикаси жиноят қонунчилиги бўйича вояга етмаганларга жазо тайинлаш муаммолари 12.00.08 - Жиноят ҳуқуқи ва криминалогия; жиноят-ижроия ҳуқуқи. Юридик фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати-Тошкент.:Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги Тошкент давлат юридик институти, 2006 – 47-бет. URL: <https://sud.uz/wp-content/uploads/2023/01/2-OS-2021.pdf>

13. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси, 2017 й., 13-сон, 194-модда. URL: <https://lex.uz/ru/docs/163629?ONDATE=16.02.2023>

14. Султанова Г.А. Вояга етмаганлар учун жазо тайинлашнинг ўзига хос хусусиятлари ва амалиёти. Магистрлик диссертацияси. Тошкент 2017 йил. Б 62 URL: [file:///C:/Users/HP/Downloads/osobennosti-naznacheniya-nakazaniya-nesovershennoletnim-v-period-pandemii%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/HP/Downloads/osobennosti-naznacheniya-nakazaniya-nesovershennoletnim-v-period-pandemii%20(1).pdf)